


## 2021- yil uchun Toshkent shahrida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilda Toshkent shahri bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 121 829,5 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2020- yil bilan taqqoslaganda 14,1 % ga o'sdi .

YAHM deflyator indeksi 2020- yildagi narxlarga nisbatan 110,0% ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Toshkent shahrining qo'shgan hissasi 16,6 % ga yetdi.




## 2020-2021- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da
	2020- yil	2021- yil	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>97 108,0</b>	<b>121 829,5</b>	<b>114,1</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	87 190,2	110 212,0	114,1
mahsulotlarga sof soliqlar	9 917,8	11 617,5	114,3
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>87 190,2</b>	<b>110 212,0</b>	<b>114,1</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>38 160,0</b>	<b>49 053,8</b>	<b>114,7</b>
sanoat	30 015,1	38 013,5	113,9
qurilish	8 144,9	11 040,3	117,7
<b>xizmatlar</b>	<b>49 030,2</b>	<b>61 158,2</b>	<b>113,6</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	<b>12 389,7</b>	<b>16 777,5</b>	<b>118,4</b>
tashish va saqlash, axborot va aloqa	10 542,6	13 316,1	120,2
boshqa xizmat tarmoqlari	26 097,9	31 064,6	108,6

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 43 211,1 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 6,9 % ga yuqoridir.

## 2020-2021- yillarda aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 90,5 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 9,5 % ini tashkil etdi.



Hisobot davrida sanoat tarmog'i 34,5 % ni, qurilish 10,0 % ni va xizmatlar sohasi 55,0 % ni tashkil qildi.



## 2020-2021- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2020- yil	2021- yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	89,8	90,5
mahsulotlarga sof soliqlar	10,2	9,5
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>43,7</b>	<b>44,5</b>
sanoat	34,4	34,5
qurilish	9,3	10,0
<b>xizmatlar</b>	<b>56,3</b>	<b>55,5</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	14,2	15,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	12,1	12,1
boshqa xizmat tarmoqlari	30,0	28,2

## 2020-2021- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)




● **Yalpi qo'shilgan qiymat**

● **Mahsulotlarga sof soliqlar**


YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari sanoatda 113,9 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 34,5 %), qurilishda – 117,7 % (10,0 %), xizmatlar sohasida – 113,6 % ni (55,5 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 118,4 % (15,2 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 120,2 % (12,1 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 108,6 % dan (28,2 %) iborat bo'ldi.

## 2020-2021- yillarda YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)




YAHM o'sishiga sanoat tarmog'i – 4,3 f.p. (2020- yilda – 0,1 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,5 f.p. (2020- yilda – 0,5 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 6,8 f.p. (2020- yilda – 1,4 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 1,5 f.p. (2020- yilda – 0,4 f.p.)ga ko'paydi

## 2021- yilda YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2021- yilda YAHM deflyatori indeksi 2020- yildagi narxlarga nisbatan 110,0 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qurilishda – 115,1 % va sanoatda – 111,2 % qayd etildi.

## 2020-2021- yillarda YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)



## 2021- yilda kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

2021- yilda kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 48,1 % ni tashkil qildi (2020- yilda – 51,2 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

